**UO‘K 811.512.133’373**

# BADIIY NUTQDA DIALEKTIZMLAR ORQALI MILLIY RUHIYATNING IFODALANISHI

*(Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani asosida)*

**D.S. Ne’matova**

*Maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida qo‘llangan shevaga xos va lug‘atlarda qayd etilmagan leksemalarning semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Jumladan, “birushta”, “lo‘mshimoq”, “obiravon ko‘ynak”, “uzanmoq”, “javdimoq”, “javdishgan” kabi so‘z va so‘z birikmalarining matndagi ma’nosi kontekst asosida yoritilib, ularning qahramon nutqini individuallashtirish va asarga milliy-hududiy kolorit berishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, Cho‘lponning xalqona leksikadan foydalanishdagi o‘ziga xosligi ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *shevaga xos so‘zlar, leksema, dialektizm, semantika, badiiy nutq, milliy-hududiy kolorit.*

*В статье анализируются семантические особенности диалектных и не зафиксированных в словарях лексем, употреблённых Чулпаном в романе «Кеча ва кундуз». На основе контекста раскрываются значения слов «бирушта», «лумшимоқ», «обиравон кўйнак», «узанмоқ», «жавдимоқ», «жавдишган». Определяется их роль в индивидуализации речи персонажей и создании национально-регионального колорита произведения. Выявляются особенности использования народной лексики в художественном языке Чулпана.*

**Ключевые слова:** *диалектное слово, лексема, диалектизм, семантика, художественная речь, национально-региональный колорит.*

## KIRISH

Badiiy asarda nutq ta’sirdorligini kuchaytirish, qahramonlar nutqini tabiiy hamda o‘ziga xos tarzda shakllantirishda mahalliy shevalarga xos til unsurlari muhim o‘rin tutadi. Abdulhamid Cho‘lpon o‘z asarlarida xalq tilining boy imkoniyatlaridan, xususan, Andijon shevasiga xos fonetik, morfologik va leksik birliklardan yuksak badiiy mahorat bilan foydalangan. “Kecha va kunduz” romanida qo‘llangan dialektizmlar personajlar nutqini individuallashtirish, ularning ichki kechinmalari va xarakterini ochish, voqealar kechayotgan ijtimoiy muhitni tasvirlash hamda asarning milliy-hududiy koloritini ta’minlashda muhim vazifani bajaradi.

“Adabiy tilda kam qo‘llanadigan dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini ifodalash uchun muhim vosita hisoblanadi. Zero, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar yashaydigan hududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda, muayyan hudud aholisigagina xos bo‘lgan jihatlar – urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va boshqalar ham mavjud. Bunday xususiyatlar, avvalo, sheva tilida o‘z ifodasini topadi. Shunga ko‘ra, badiiy asarda tasvirlanayotgan hududga xos bo‘yoqlarni aks ettirish, shu hududda harakatlanayotgan personaj xarakterini to‘laqonli badiiy talqin qilish maqsadida dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi” [1. B. 264–265].

Yozuvchi o‘z asari ustida ishlar ekan, uning tili boy, rang-barang, ta’sirdor, shu bilan birga, sodda va mazmundor bo‘lishiga ham intiladi. Zero, badiiy asarning estetik qimmati ko‘p jihatdan uning go‘zal va nafis tiliga ham bog‘liq bo‘ladi. Dialektizmlar ham badiiy maqsadga muvofiq, o‘rinli va mahorat bilan qo‘llanilganda yozuvchining ana shu maqsadiga erishishiga xizmat qiladi. Xususan, o‘rinli qo‘llangan dialektal so‘zlar badiiy nutqning leksik boyligini kengaytirib, sinonimik imkoniyatlarini, obrazliligi va tasviriy ifodasini oshirishi mumkin.

Ijodkor o‘z asarida muayyan bir davr voqeligini aks ettirar ekan, shu davr kishilari dunyoqarashini, ruhiyatini to‘g‘ri tasvirlash, eng muhimi, ularning xarakterini ochish uchun har bir personajning o‘ziga xos nutqini yaratadiki, bunda u dialektizmlardan unumli foydalanadi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida qo‘l-

langan shevaga xos hamda lug‘atlarda qayd etilmagan leksemalarning semantik xususiyatlari va badiiy-uslubiy imkoniyatlari, ularning qahramon nutqini individuallashtirish va asarda milliy-hududiy koloritni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

## MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqot materiali sifatida Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida uchraydigan shevaga xos, xalqona hamda adabiy til lug‘atlarida qayd etilmagan leksik birliklar tanlab olindi. Tahlillar, xususan, “birushta”, “lo‘mshimoq”, “bo‘rgarlik obrez”, “choch”, “obiravon ko‘ylak”, “uzanmoq”, “javdiydi”, “javdishgan” kabi so‘z va birikmalari asosida olib borildi. Manba sifatida romanning 2016-yil nashridan [2], ayrim farqli o‘rinlarni qiyoslash uchun esa 2000-yil nashr variantidan [3] foydalanildi.

Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual, qiyosiy va funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida leksemalarning faqat lug‘aviy ma’nosi emas, balki ularning kontekstdagi semantik aktuallashuvi, ekspressivligi, tasviriyligi, personaj nutqini individuallashtirishi va milliy-hududiy kolorit yaratishdagi vazifasi ham e’tiborga olindi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma’lumki, aksariyat ijodkorlar adabiy tilda uchramaydigan yoki kam qo‘llanilayotgan ayrim so‘zlarni o‘z asariga olib kirib, ularning ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalanish borasida o‘ziga xos ibrat namunasini ko‘rsatadilar. Bu esa tilning muttasil yasharib, yangilanib va boyib borishiga xizmat qiladi. Abdulhamid Cho‘lpon ijodida ham xalqona so‘zlarning betakror ifoda imkoniyatlaridan samarali foydalanish borasida boy ijodiy tajriba kuzatiladi. Yozuvchining tarjimayi holidan ma’lum bo‘lishicha, u ijtimoiy-madaniy faoliyati davomida ko‘plab hududlarda bo‘lgan, kishilarning urf-odatlari, hayot tarzini hamda nutqidagi sheva xususiyatlarini sinchiklab kuzatgan. Ana shu kuzatuvlar asosida ijodkor tilimizdagi qadimiy va sof turkiy ohangga ega bo‘lgan ko‘plab so‘zlarni o‘z asarlarida mahorat bilan qo‘llagan. Shu tariqa Cho‘lpon milliy tilning boy lug‘aviy qatlamlarini jonlantirib, uning ifoda imkoniyatlari kengayishiga munosib hissa qo‘shgan.

Adibning “Kecha va kunduz” romanida qo‘llangan *lo‘mshib, tola, tang‘irqash, birushta, uziqara, ittik, arvaq, tag‘in, tamosini, jirtak, javdimoq, obiravon ko‘ynak, teng-to‘sh, uzanmoq, choch, kepata* va shu kabi so‘zlar asar tilining xalqchilligini ta’minlash bilan birga adabiy til leksikasining boyitishda ham muayyan ahamiyat kasb etishi aniq. Bu so‘zlarning aksariyati bugungi kunda so‘zlashuv nutqida faol qo‘llaniladi. Ularning ayrimlari faqat shevalardagina mavjud bo‘lsa-da, o‘z ahamiyati va ifoda imkoniyatining kengligi bilan adabiy til leksikasidan joy olishga munosibdir. Aynan boshqa ekvivalentlariga nisbatan adabiy tilda ommalashish imkoniyatiga ega bo‘lgan ba’zi so‘zlarni quyida izohlashga harakat qilamiz.

Cho‘lpon asarlarida akademik lug‘atlarda qayd etilmagan, shevaga oid (dialektal) yoki muallif tomonidan yaratilgan (okkazional) leksemalar tez-tez uchraydi. Shulardan biri **“lo‘mshimoq”** fe’lidir: *Go‘yo bir bo‘lak go‘sht boshining oldiga – xuddi peshona tepasiga kelib olib, bilakdagi tomirday* ***birushta lo‘mshib*** *turardi* [2. B. 256].

Matndagi ushbu fe’l adabiy tilda keng qo‘llanmaydi, u shaxs yoki narsaning tashqi ko‘rinishi va holatini ifodalab, “bo‘rtib, do‘mpayib, yirik va yumaloqsimon holda ko‘rinib turmoq” kabi ma’nolarni bildiradi. “Lo‘mshimoq” leksemasini Cho‘lponning individual-mualliflik mahoratini ko‘rsatuvchi va dialektal asosga ega bo‘lgan fe’l sifatida baholash mumkin.

Matnda “birushta + lo‘mshib + turardi” uchligi harakat-holatning takroriy va davomiy xarakterda ekanini ifodalaydi. Buni tahliliy jadval shaklida berish mumkin:

*1-jadval*

**“Birushta lo‘mshib turardi” birikmasi va uning grammatik/semantik talqini**

| So‘z (komponent) | Grammatik / semantik maqomi | Semantik vazifasi |
|---|---|---|
| **birushta** | Dialektal leksema (ravish) | Harakat va holatning qayta-qayta takrorlanib turishini (“*tez-tez*”) ifodalaydi. |
| **lo‘mshib** | Yetakchi fe’l (ravishdosh shaklida) | Narsaning bo‘rtib, do‘mpayib chiqish, shishish holatini bildiradi |
| **turardi** | Ko‘makchi fe’l (sintaktik vazifada) | Mazkur takroriy holatning ma’lum vaqt oralig‘idagi uzluksiz davomiyligini anglataydi. |

“Birushta lo‘mshib turardi” so‘z birikmasi tasvirda predmetning bir martalik bo‘rtish emas, balki tez-tez bo‘rtib-lo‘mshib, so‘ng o‘z holiga qaytadigan dinamik, takroriy harakat-holatini ifodalashga xizmat qilgan.

Tasvir davomida berilgan “...bilakdagi tomirday birushta lo‘mshib turardi” o‘xshatishida “bilakdagi tomir” birikmasi juda muhim semantik vazifani bajargan. Tomir statik bo‘lmagan xususiyatga ega: u pulsatsiya (tomir urishi) ta’sirida muntazam bo‘rtib va bilinib turadi. Shu nuqtayi nazardan, “birushta” leksemasining “tez-tez, dam-badam” ma’nosi “bilakdagi tomirday” o‘xshatishi bilan tabiiy va semantik jihatdan mukammal uyg‘unlik hosil qiladi. Demak, “birushta” – “tez-tez, dam-badam, qayta-qayta” ma’nolarini anglatuvchi dialektal leksema bo‘lib, ko‘rib chiqilayotgan matnda “lo‘mshib” fe’lining takroriyligini ifodalashga xizmat qiladi. U “bilakdagi tomirday” o‘xshatishi bilan semantik jihatdan uyg‘unlashib, tasvirlanayotgan detalning harakat va tashqi ko‘rinishini yaxlit tasavvur etishga xizmat qiladi. “Turardi” ko‘makchi fe’li esa ushbu takroriy holatning davomiyligini ko‘rsatadi. Natijada “birushta lo‘mshib turardi” birikmasi predmetning jonli, ko‘zga yaqqol tashlanadigan va takrorlanuvchi harakat-holatini yuzaga chiqaradi.

Ko‘rinadiki, “*Go‘yo bir bo‘lak go‘sht boshining oldiga – xuddi peshona tepasiga kelib olib, bilakdagi tomirday birushta lo‘mshib turardi*” jumlasi misolida “lo‘mshib” shevaga xos leksik birlik sifatida tasvirning ekspressivligini ta’minlaydi. Uning semantik jihatdan matnda narsaning bo‘rtib, do‘mpayib, hajmdor holda ko‘rinib turishini ifodalaydi. Leksemaning poetik qimmati uning “bir bo‘lak go‘sht” va “bilakdagi tomirday” birliklari bilan semantik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. “Bilakdagi tomirday” o‘xshatishi “lo‘mshib” fe’li ifodalagan tashqi belgini konkretlashtirib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq vizual obraz hosil qiladi. Shuningdek, “lo‘mshib turardi” konstruksiyasi holatning davomiyligini ifodalab, tasvirning vizual xarakterini kuchaytiradi. Aytish mumkinki, mazkur leksemaning badiiy qimmati faqat uning nominativ ma’nosi bilan cheklanmaydi, balki obraz yaratish, tasvirni konkretlashtirish hamda muallifning individual uslubini ta’minlash kabi vazifalarida yorqin namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, shevalarda uchrab turadigan bunday so‘zlarning muvofiqlarini adabiy tilga qabul qilish va turli lug‘atlarda aks ettirish tilni boyitish hamda uning sinonimlari sifatida to‘ldirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Endi e’tiborimizni quyidagi misolda qo‘llangan “bo‘rgarlik obrez” birikmasiga qaratamiz: “*Ganjinaning o‘ng tomonida, **bo‘rgarlik obrez** yonida tashlangan bir o‘choq, necha yildan beri yotgan bir quchoq o‘tin, devolda sirkadan bo‘shalgan bir-ikkita qovoq... Ganjinaning butun borligi shundan iborat!*” [2. B. 221]. O‘zbek tilining izohli va etimologik lug‘atlarida berilishicha, “obrez” so‘zi yuz-qo‘l yuvish hamda suvni oqizish uchun uy ostonasi yoki dahlizida yasalgan, usti yopiq maxsus o‘ra ma’nosini bildiradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur so‘zning forscha *ob* – “suv” va *-rez* –“quyiluvchi, to‘kiluvchi” [4. B. 430] qismlaridan tarkib topgani ham qayd etilgan. Mazkur lug‘aviy ma’lumot “obrez” so‘zining suv bilan bog‘liq maishiy ehtiyojlarga xizmat qiluvchi joyni anglatishini ko‘rsatadi.

Matndagi “bo‘rgarlik” shakli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mustaqil lug‘aviy birlik sifatida qayd etilmagan. Biroq “Burg‘ar” (yoki “Burgar”) shakli tarixiy-geografik nom sifatida manbalarda uchraydi. Jumladan, o‘rta asr arab geograflari Istaxriy va Ibn Havqal asarlarida Burg‘ar Ustrushona hududidagi tog‘li rustoqlardan biri, ya’ni muayyan ma’muriy-hududiy birlik sifatida tilga olinadi [5. B. 160]. Ayni paytda “bo‘rgarlik”ning Burg‘ar tarixiy toponimi bilan aloqadorligi hozircha faqat etimologik taxmin darajasida ekanini hisobga olish lozim. Chunki asar kontekstida mazkur birlik “obrez”ni aniqlab kelib, uning muayyan tashqi xususiyatini bildirishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan, “bo‘rgarlik obrez” birikmasini “oqlangan, ohaklangan yoki bo‘r bilan oqartirilgan obrez” ma’nosida talqin qilish imkoniyati ham mavjud.

“*Ganjinaning o‘ng tomonida bo‘rgarlik obrez yonida tashlangan bir o‘choq*...” Bu yerda “bo‘rgarlik” so‘zi “obrez”ni aniqlab kelayotgan sifatlovchi komponent vazifasida: *bo‘rgarlik + obrez → bo‘rgarlik obrez*.

Bo‘rgarlik so‘zining ma’nosini toponim bilan emas, balki bo‘r (gips) leksemasi bilan bog‘liq holda izohlash o‘rinli. Ushbu leksemaning o‘rta turkiy davrda *mineral, gil* ma’nolarida qo‘llangani va hozirgi turkiy tillarning ko‘pchiligida ham uchrashi obrez (avraz) so‘zining turkiy kelib chiqishiga ega ekanini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, mazkur birikma “bo‘rgarlikka xos obrez”, “bo‘rgarlik obrezi” yoki kontekstga qarab “bo‘rgarlik usulida yoxud shu joyga xos tarzda qurilgan obrez” ma’ноларйда talqin qilinishi mumkin.

Ayniqsa, “obrez yonida tashlangan bir o‘choq” deyilishi bu yerda gap uyning maishiy ehtiyojlari bilan bog‘liq joy – suv oqiziladigan chuqurcha va uning yonidagi o‘choq haqida ketayotganini ko‘rsatadi. “Bo‘rgarlik” esa umumiy izohli lug‘atda mustaqil so‘z sifatida qayd etilmagan, shuning uchun muayyan hududga xos etnografik-maishiy atama yoki hududiy xususiyatga ega birlik bo‘lishi ehtimoli yuqori. Chunki *-lik* qo‘shimchasi o‘zbek tilida joy, aloqadorlik, xoslik ma’nolarini ifodalaydi. Shu sababli *bo‘rgar + -lik → bo‘rgarlik* shakli “bo‘rgarga oid”, “bo‘rgarga xos” mazmunini beradi. Birikmada bo‘rgarlik “obrez”ning turi, xosligi yoki joyga/an’anaga aloqadorligini bildiruvchi aniqlovchi komponent vazifasida kelgan.

Birikmadagi “bo‘rgarlik” komponentining hozirgi adabiy tilda mustaqil lug‘aviy ma’nosi saqlanmagan

bo‘lsa-da, kontekst uni obrezning tashqi xususiyatini bildiruvchi birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi. Xususan, “bo‘rgarlik obrez”ni “oqlangan, ohaklangan yoki bo‘r bilan oqartirilgan obrez” ma’nosida tushunish ham mumkin. Bunday talqin o‘zbek tilidagi “oqlamoq” fe’lining “ohak, bo‘r kabi oq tusga kirituvchi narsalar bilan bo‘yamoq” ma’nosi bilan ham semantik jihatdan uyg‘unlashadi. Biroq bu o‘rindagi *-lik* qo‘shimchasini bevosita “oqlangan” ma’nosini hosil qiluvchi morfema sifatida talqin qilish mumkin emas. Mazkur shaklni tarixan leksiklashgan birlik sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Yana bir misolga murojaat qilamiz: “*Bir katta piyolaga* ***choch*** *qilib to‘ldirgandan keyin bir shimirishda ichib bo‘ldi*” [2. B. 255]. Mazkur gapdagi “choch” leksemasi matnda “ko‘p, limmo-lim qilib, tepalatib, me’yoridan oshirib to‘ldirib, idish og‘zigacha qilib” kabi miqdor-hajmni ifodalovchi leksemadir. “Choch qilib to‘ldirmoq” birikmasi piyolaning oddiy to‘lganini emas, balki unga suyuqlikning miqdori me’yoridan ortiq quyilganini, hatto idish og‘zigacha to‘ldirilganini obrazli tarzda ifodalaydi. Shu jihatdan “choch” leksemasi miqdoriy belgini vizual holat bilan uyg‘unlashtirib, tasvirning aniqligi va ekspressivligini ta’minlagan. “Choch” so‘zi leksemasi mavjud lug‘atlarda qayd etilmagan, u hozirgi Baliqchi (Andijon) shevasida uchraydi.

“Choch” leksemasi neytral “to‘ldirmoq” fe’liga kvantitativ (miqdoriy) va ekspressiv-emotsional ma’nolarini yuklab, ichimlikning ko‘pligini vizual va konkret tasavvur qilish imkonini beradi. Ushbu birlikning keyingi “bir shimirishda” birikmasi bilan semantik uyg‘unligi natijasida miqdorning salmoqdorligi va harakatning favqulodda tezligi o‘zaro bog‘lanadi. Shuningdek, leksemaning dialektal (shevaga xos) tabiati matnga jonlilik va milliy kolorit bag‘ishlab, personaj nutqini individuallashtirishda muhim lingvopoetik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Cho‘lpon asarlarida shevaga xos so‘zlar personaj nutqini individuallashtirish, uning ruhiyatini ochib berishdan tashqari, qahramon portretini, yana ham aniqrog‘i, qahramonning tashqi qiyofasiga tegishli kiyim detali vositasida uning ijtimoiy maqomini konkretlashtirishda ham muhim vosita sifatida qo‘llanilgan. Jumladan, “*Shu yerga kelganda Xadichaxon ko‘ziga yosh oldi, shapaloq gulli obiravon ko‘ylagining uzun yengi bilan ko‘zlarini artdi*” [2. B. 49] misolidagi *obiravon ko‘ylak* birikmasida *obiravon* leksemasi gazlama nomini anglatib, *ko‘ylak* so‘zini aniqlab kelgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *obiravon* shaklidagi ikki omonim leksema qayd etilgan. Ulardan OBIRAVON I forscha o‘zlashma bo‘lib, “oqar suv”, shuningdek, ko‘chma ma’noda “suvday serob, mo‘l-ko‘l” ma’nolarini anglatadi. OBIRAVON II esa “bir turli guldor, yupqa gazlama” deb izohlangan. Demak, mazkur kontekstda *obiravon* leksemasi lug‘atda keltirilgan ikkinchi ma’noda, ya’ni *guldor va yupqa gazlama nomi* [4. B. 426] ma’nosida qo‘llangan.

Shuningdek, mazkur gazlamaning o‘ta nozikligi uning nomlanishidagi obrazlilikni ham izohlaydi. Forscha *āb-i-ravān* birikmasidagi *āb* “suv”, *ravān* esa “oquvchi, oqib turgan” [6] ma’nolarini anglatib, butun birikma “oqar suv” mazmunini ifodalaydi. Keyinchalik ushbu obrazli ifoda matoning fizik xususiyatiga ko‘chirilib, nihoyatda nozik va yengil muslin turining nomi sifatida qo‘llangan. O‘zbek tilida esa mazkur leksema semantik jihatdan ixtisoslashib, “bir turli guldor, yupqa gazlama” ma’nosini anglatuvchi etnografik leksema sifatida shakllangan.

Cho‘lponning mazkur leksemani qahramon kiyimi tasvirida qo‘llashi ham badiiy jihatdan e’tiborli. Jumladan, *shapaloq gulli* birikmasi matoning tashqi bezagini, *obiravon* leksemasi uning turi va sifatini, *uzun yeng* birikmasi esa kiyimning shakliy xususiyatini belgilaydi. Natijada yozuvchi Xadichaxonning tashqi qiyofasini bitta kiyim detali va undagi bir necha belgilar asosida konkretlashtiradi.

Ayni paytda, *obiravon ko‘ylak* detali personajning ijtimoiy-maishiy muhiti va oilasining moddiy-iqtisodiy holatini ham bilvosita ifodalaydi. Tarixiy jihatdan nozik va nafis gazlama sifatida qadrlangan mazkur matodan tikilgan kiyim har bir oila bekasida ham mavjud bo‘lavermagan. Shu jihatdan yozuvchining *obiravon ko‘ylak*ni Zebi, Saltanat yoki Enaxonning emas, aynan Xadichaxon egniga kiydirishi tasodifiy emas. Bu detal orqali uning oiladagi ijtimoiy mavqei, moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganligi va muayyan darajadagi farovon turmush tarzi nozik badiiy ishora vositasida namoyon etiladi. Sotsiolog E.Giddens “Birinchi xotin oilaviy masalalarni hal qilishda o‘zidan keyingi xotinlarga nisbatan keng imkoniyatlarga ega bo‘lishi” [7. B. 428] haqida yozadi. Ma’lumki, Xadichaxon Akbarali mingboshining to‘ng‘ich xotini va u mingboshining boshqa xotinlari – Poshshaxon va Sultonxondan nafaqat yosh, balki mavqe jihatidan ustun pozitsiyadadir. Demak, *obiravon ko‘ylak* romanda shunchaki kiyim nomini bildiruvchi etnografik leksema bo‘libgina qolmay, balki personajning ijtimoiy maqomi, oilasining iqtisodiy imkoniyatlari va davrga xos ijtimoiy tabaqalanish xususiyatlarini ifodalovchi badiiy detal sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, *obiravon ko‘ylak* birikmasi asarda bir vaqtning o‘zida leksik, etnografik va lingvopoetik vazifalarni bajaradi. Leksik jihatdan u tarixiy gazlama nomini saqlab qolgan; etnografik jihatdan davrga xos kiyim-kechak madaniyatini aks ettiradi; lingvopoetik jihatdan esa Xadichaxon obrazining tashqi ko‘rinishi, kiyinish madaniyati va ijtimoiy-maishiy muhitini konkretlashtiruvchi badiiy detal vazifasini bajaradi. Ayniqsa, *shapaloq gulli obiravon ko‘ylak* tarzidagi

kengaytirilgan birikma personaj obrazini vizual jihatdan jonlantirib, Cho‘lponning tarixiy-etnografik leksemalardan obraz yaratish vositasi sifatida foydalanish mahoratini namoyon etadi.

“Kecha va kunduz” romanida “uzanmoq” fe’li uch o‘rinda qo‘llangan. Asar davomida mazkur fe’lning turli kontekstlarda qo‘llanilish xususiyatlari uning ma’no va uslubiy imkoniyatlarini kuzatish uchun muhim material beradi. Shu jihatdan, quyida “uzanmoq” fe’lining asar matnidagi qo‘llanish holatlarini tahlil qilamiz.

1) *“Gilamga uzanib boshini qo‘llari ustiga qo‘ydi: bemahal qishning sovuq tongida shamollab uyquga ketmoq istardi”* [2. B. 256];

2) “*Faqat, ertalabgacha mehmonlarga hech narsa demadilar. Ular borgan joylaridan charchab kelishib, o‘tirgan o‘rinlarida shundoqqina uzanib qolgan edilar*” [2. B. 57];

3) *“Mehmonlar osh-suv taraddilariga yo‘l qo‘ymasdan, sut-qatiq bilan quruq choy ichib, darhol o‘tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar”* [2. B. 29].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “uzanmoq” shaklidagi ikki omonim leksema qayd etilgan. UZANMOQ I – uzala tushib yotmoq, cho‘zilib yotmoq. UZANMOQ II – biror narsani olish uchun intilmoq, qo‘l cho‘zmoq, cho‘zilmoq [8. B. 264].

Yuqorida keltirilgan uch misoldagi *uzanmoq* fe’li shaklan bir xil bo‘lsa-da, uning ma’nosida kontekstga ko‘ra muayyan semantik nozikliklar yuzaga kelgan. “Kecha va kunduz” romanida bu fe’l oddiy “yotmoq”-ning sinonimi sifatida emas, balki personajning tanasi qanday holatda joylashgani, harakatning maqsadi va natijasini ifodalovchi tasviriy vosita sifatida qo‘llangan.

1. “*Gilamga uzanib boshini qo‘llari ustiga qo‘ydi*...”

Bu o‘rinda *uzanib* harakatning yo‘nalishi va tananing harakat davomidagi holatini bildiradi: personaj gilam ustiga tanasini cho‘zib yotadi, so‘ng boshini qo‘llari ustiga qo‘yadi. Demak, bu kontekstda *uzanmoq*ning asosiy semantik belgisi – tanani bo‘yiga cho‘zib yotish. Muhimi, bu yerda *uzanmoq* oddiy “yotmoq”dan ko‘ra tasviriylikni kuchaytiruvchi ma’no kasb etadi. *Yotmoq* harakatning umumiy holatini bildirsa, *uzanmoq* tananing cho‘zilgan holatda joylashishini aniqroq tasavvur qildirib, personajning sovuq tongda uyquga ketish istagi bilan bog‘liq holatni ifodalamoqda.

2. “*Ular borgan joylaridan charchab kelishib, o‘tirgan o‘rinlarida shundoqqina uzanib qolgan edilar*”.

Bu misolda *uzanib qolmoq* birikmasi birinchi misoldagidan biroz farqli semantik ottenkaga ega. Bu yerda asosiy urg‘u harakatning charchoq natijasida beixtiyor sodir bo‘lishiga tushadi. Ya’ni mehmonlar maxsus joy tayyorlab yotishmagan, balki o‘tirgan o‘rinlaridayoq charchoq ta’sirida tanalarini cho‘zib uxlab qolishgan. Shuning uchun bu yerda *uzanmoq* “*charchoq tufayli o‘tirgan holatdan tanani cho‘zib yotish*” ma’nosini bermoqda. *Qolmoq* ko‘makchi fe’li esa harakatning tasodifiy, muayyan holat natijasida yuzaga kelganini kuchaytirib ifodalaydi.

3. “*Mehmonlar osh-suv taraddilariga yo‘l qo‘ymasdan, sut-qatiq bilan quruq choy ichib, darhol o‘tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar”.*

Bu misolda *uzandilar* fe’li ataylab yotish uchun tanani cho‘zish, yotish holatiga o‘tish ma’nosini anglatadi. Kontekstda “*sut-qatiq bilan quruq choy ichib, darhol*...” deyilishi harakatning tez va bevosita amalga oshganini ko‘rsatadi. Bu yerda *uzanmoq*ning semantik strukturasida: harakat → tanani cho‘zish → yotish holatiga o‘tish komponentlari mavjud.

“*Aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar*” jumlasidagi *uzanar-uzanmas* shakli juda muhim. U “uzanishlari bilan”, “endigina uzanib yotishlari bilan” degan ma’noni beradi. Ya’ni harakatning boshlanishi bilanoq keyingi holat – uyquga ketish sodir bo‘ladi.

Bu misolda *uzanmoq*ning harakat ma’nosidan ko‘ra uning holatga o‘tish nuqtasi kuchliroq seziladi. *Uzanar-uzanmas* shakli esa harakat va natijaning vaqt jihatidan deyarli bir paytda yuz berganini ifodalaydi.

Shunday qilib, keltirilgan misollarda *uzanmoq* fe’lining umumiy lug‘aviy asosi “*tanani cho‘zib yotish*” bo‘lsa-da, har bir kontekstda unga qo‘shimcha ma’no nozikliklari yuklangan:

*3-jadval*

**“Uzanmoq” fe’lining kontekstual ma’no qirralarilari**

| Misol | Kontekstual ma’no | Asosiy semantik belgi |
|---|---|---|
| gilamga uzanib | tanani cho‘zib yotish | Holat |
| uzanib qolgan edilar | charchoq tufayli beixtiyor cho‘zilib yotish | natijaviylik, beixtiyorlik |
| o‘tirgan joylariga uzandilar | ataylab yotish holatiga o‘tish | harakat, holatga o‘tish |
| uzanar-uzanmas uyquga ketdilar | yotishlari bilanoq uyquga ketish | Tezkorlik |

Shuning uchun bu misollarni bir ma'noli qo'llanish deb baholash to'g'ri bo'lmaydi. Ular o'rtasida leksik-semantik emas, balki kontekstual-semantik noziklik-lar mavjud. Ya'ni fe'lning asosiy denotativ ma'nosi o'zgarmaydi, ammo kontekst uning *cho'zilib yotish, charchoqdan yotish, yotishga o'tish, yotish bilanoq muayyan holatga kirish* kabi qo'shimcha semantik ottenkalarini aktuallashtiradi.

Ayniqsa, *"uzanib qolgan edilar"*, *"uzanar-uzanmas uyquga ketdilar"* kabi qo'llanishlar Cho'lponning personaj holatini harakat orqali tasvirlash mahoratini ko'rsatadi. Yozuvchi "yotmoq" fe'lini qo'llashi ham mumkin edi, biroq *uzanmoq* tananing cho'zilishi va harakatning jismoniy ko'rinishini aniqroq tasvirlaydi. Shu bois mazkur fe'l asarda harakatni jonli tasvirlash va holatni aniq gavdalantirish vazifasini odatiy "yotmoq" fe'liga nisbatan samaraliroq bajaradi.

Demak, asarda "uzanmoq" fe'li asosan "tanani cho'zib yotish" denotativ ma'nosida qo'llangan bo'lsa-da, uning kontekstual realizatsiyalarida charchoq, beixtiyorlik, yotish holatiga o'tish, harakatning tezligi va keyingi holat bilan bevosita bog'liqlik kabi semantik-pragmatik ottenkalar namoyon bo'ladi.

"*Chinakam, so'fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javdiydi. Bir-ikki marta pasport ham oldi. Faqat, nima uchundir, oyog'ini o'z shahrining tuprog'idan uza olmaydi*" [2. B. 13].

Keltirilgan misolda qo'llangan "javdiydi" fe'li lug'aviy jihatdan ham e'tiborga molik: u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilmagan. "Kecha va kunduz"-ning 2000-yilda N.Karimov muharrirligida nashr etilgan variantida mazkur fe'l *javraydi* tarzida berilgan. Endi har ikki variantdagi matn parchasini qiyoslaymiz:

"*Chinakam, so'fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javraydi*" (2000) [8. B. 12];

"*Chinakam, so'fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javdiydi*" (2016. B. 13).

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "javramoq" fe'lining asosiy ma'nosi "hadeb gapiravermoq, zeriktirar darajada ko'p gapirmoq, vaysamoq" [8. B. 269] ekani qayd etilgan. "Imlo.uz" sayti ham *javramoq* shaklini mustaqil fe'l sifatida qayd etadi va tuslanishida *javraydi* shaklini ko'rsatadi [9]. Bundan tashqari, *javramoq*ning yana bir – shevaga xos ma'nosi ham qayd etilgan: *sovuqda qotmoq, sovuq yeb titramoq, diydiramoq*. Lekin biz ko'rib chiqayotgan matnda bu ma'no o'rinli emas, bu ma'no kontekst bilan mantiqiy ziddiyat keltirib chiqaradi.

Agar bu so'z 2000-yil nashridagi kabi "javradi" tarzida o'zgartirib berilsa, yozuvchining Razzoq so'figa bergan ta'rifi bilan nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bu yerda "javraydi" = "ko'p gapiradi, vaysaydi" desak, Razzoq so'fi obraziga mos kelmaydi. Cho'lpon asar boshlanishida unga quyidagicha tavsif beradi: "Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi. Tashqari olamda, ya'ni o'z hovlisidan tashqarida uning doimiy va birdan-bir vazifasi: o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa – "hovva-hovva" demak, o'zidan past va kuchsizlar gapirsa – "yo'q, yo'q" degan ma'noda bosh chayqash bo'lardi. Uyida vaqtida uning og'zidan odam bolalari o'rtasida yuraturgan tuzuk, ma'nilik va "gap" desa bo'ladigan bir so'z chiqmas edi. Umuman, so'fining bu bobda o'ziga ko'ra asosli bir maslagi bor: u, o'zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og'iz ochib til kaldiratishni ravo ko'rmaydi" [2. B. 10]. Demak. "javdiydi" so'zini lug'aviy ma'nosi "ko'p gapirmoq, vaysamoq" bo'lgan "javraydi" so'zi bilan almashtirish o'zini oqlamagan.

Romanning boshqa nashrlarida berilgan "javdiydi" fe'liga kelsak, bu variantni matniy xato deb ham ayta olmaymiz. Matnda saqlangan nostandart, shevaga xos yoki eski nutqiy shakl bo'lish ehtimoli haqiqatga yaqinroq. Bizningcha, bu o'rinni "ko'p gapirish" ma'nosida emas, "hajga borish haqida har yili bir xil niyat qilib yuradi, shu niyatni qayta-qayta tilga oladi" ma'nosida tushunish kerak. Cho'lponning kinoyasi ham shunda. "*Har yili javdiydi. Bir-ikki marta pasport ham oldi*", deyish bilan so'fining har yili hajga borish niyatini takrorlab yurishini, hatto buning uchun pasport olishgacha borishini, ammo amalda safarga chiqmasligini ta'kidlayapti.

Bu yerda "javdiydi" fe'li lug'aviy ma'nodan ko'ra kontekstual-uslubiy ma'no kasb etgan bo'lishi mumkin. Ya'ni, "har yili hajga boraman deb gap qiladi, niyat qiladi, shu gapni takrorlaydi" degan ma'noda. Bu holda "javdiydi"ning "ko'p gapiradi" semasi emas, balki "bir gapni qayta-qayta aytib yuradi" semasi aktuallashadi.

Asarning yana bir o'rnida "javdishgan" fe'li keladi: "Kechasi Umrinisabibidan Zebi to'g'risidagi tashvishli xabarni eshitganidan keyin Enaxonning onasi mehmonlar javdishgan vaqtda Saltanatni bir chekkaga chaqirib, haligi xususda ogohlantirgan bo'lsada, Saltanat bu qadar yoyilib va quvnab borayotgan o'rtog'ini xafa qilmaslik uchun unga hech narsa demaslikni ep ko'rdi" [2. B. 73]. Bu o'rinda "mehmonlar javdishgan vaqt" birikmasi mehmonlar ketish oldidan yig'inayotgan, jo'nash taraddudiga tushgan (hamma o'zi bilan o'zi ovora, sirlashish uchun juda qulay) paytni ifoda etish uchun ishlatilgan. Demak, "javdishgan = hozirlanayotgan, taraddudlangan" ma'nolarida tushunilishi mumkin. So'zning avvalgi o'rindagi qo'llanishi ham shuni tasdiqlaydi: ikkala holat umumlashtirilsa, bu so'zda "taraddudlanmoq" semasi mavjudligi ko'proq haqiqatga yaqin ekani yaqqol ko'rinadi.

## XULOSA

Tahlillar Abdulhamid Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida shevaga xos hamda lug‘atlarda qayd etilmagan leksemalardan badiiy maqsadga muvofiq va o‘ziga xos tarzda foydalanganini ko‘rsatadi. “Birushta”, “lo‘mshimoq”, “obiravon ko‘ynak”, “uzanmoq”, “javdimoq”, “javdishgan” kabi so‘z va birikmalarining ma’nosi ular qo‘llangan kontekst, qahramonlar nutqi va voqea-hodisalar mazmuni asosida oydinlashadi. Shu jihatdan bunday leksemalarni faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki badiiy matnning mazmuniy va uslubiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida baholash lozim.

Cho‘lpon shevaga xos va xalqona leksikadan foydalanish orqali qahramonlar nutqining tabiiyligi va individualligini ta’minlab, asar voqealarini muayyan ijtimoiy-hududiy muhit bilan bog‘laydi. Ayniqsa, lug‘atlarda qayd etilmagan leksemalarning kontekstual ma’nosi ularning asardagi badiiy vazifasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, “Kecha va kunduz” romani leksikasi Cho‘lponning xalq tili imkoniyatlaridan ijodiy foydalanganini, shevaga xos birliklarni badiiy matn talablariga moslashtirib, milliy-hududiy kolorit, obrazlilik va ta’sirdorlikni kuchaytirish vositasiga aylantirganini namoyon etadi.

## Adabiyotlar:


1. *Quronov D*. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
2. *Чўлпон*. Асарлар. 4 жилдлик. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 376 б.
3. *Чўлпон*. Кеча ва кундуз. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 287 б.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / Madvaliyev A., Xudayberganova D. tahriri ostida. VI jildli. 3-jild. L–P. – Toshkent: G‘.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. –844 b.
5. *Пардаев М.Ҳ., Тўйчибоев Б.Б*. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда (ёзма ва археологик манбалар асосида). – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2017. – 316 б.
6. Wikipedia. [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Abrawan (Date of Access: 18.05.2026)
7. Гидденс Э. Социология. /Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 848 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. /З.М.Маъруфов таҳрири остида. II томли. 2-том. С–Ҳ. – Москва: Русский язык, 1981. – 715 б.
9. Imlo.uz [Elektron manba]. URL: https://imlo.uz/uz/word/javramoq (Murojaat etilgan sana: 16. 02. 26)
10. *Дониёров Х., Мирзаев С.* Сўз санъати (Маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: Ўздавнашр, 1962. – 316 б.
11. *Дониёров А.* Шева унсурларининг бадиий асарларда қўлланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1990. – № 6. – Б. 34– 38.
12. *Виноградов В.В.* О языке художественной литературы. – Москва: Гослитиздат, 1959. – 655 с.
13. *Ҳожиев А*. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 168 б.
14. *Дониёров Х*. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979.− 152 б.
15. Dhaka muslin [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/ Dhaka_muslin (Date of Access: 08.04.2026)
16. Уникальный материал: рецепт этой древней ткани давно утрачен. Даже ученые не знают, как ее изготовить! [Электронный ресурс]. URL: https://www.techinsider.ru/science/1549863-recept-etoy-drevney-tkani-davno-utrachen-dazhe-uchenye-ne-znayut-kak-ee-izgotovit/ (Дата обращения: 16.04.2026)
17. *Неъматова Д.С.* Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили. – Тошкент: “Турон замин зиё” нашриёти, 2016. – 127 б.
18. *Ne’matova D.S.* O‘zbek ilmiy tilshunosligi (O‘zbek tilshunosligi tarixi). – Toshkent: Muharrir, 2020. – 160 b.

# THE EXPRESSION OF NATIONAL PSYCHOLOGY THROUGH DIALECTISMS IN LITERARY DISCOURSE

*(Based on Chulpan's novel "Night and Day")*

**Donoxon S. Nematova**[1]

*Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies.* 2026. 5(97). 109-117.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

**Key words:** dialect-specific words, lexeme, dialectism, semantics, artistic speech, national-regional flavor.

The article is analyzed the semantic, stylistic and linguopoetic features of the lexical units used in the novel "Night and Day" by Chulpan and not recorded in the dictionaries of the literary language. The main purpose of the research is to determine the functional possibilities of dialectisms and non-standard lexemes in the novel in the artistic text, to individualize the speech of the characters, to illuminate the appearance and mental state of the characters, to concretize the socio-territorial environment in which the events are taking place, and to reveal their place in the formation of the national-territorial color.

The study used descriptive, contextual, comparative and functional analysis methods. Along with the lexical meaning of lexical units, attention was paid to their semantic actualization in the text, the level of expressiveness, the nature of imagery and the artistic function. During the analysis, the relationship of lexemes with the character's speech, portrait image, social and domestic environment and national and regional color was highlighted on the basis of context. In particular, in the combination "birushta lomshib turdy" the meaning of repetition of "birushta" was revealed, and the figurative possibility of the verb "lo'mshimok" expressing the bulging and bulging appearance of the subject was revealed. Together with the auxiliary verb "turardi" it is shown that this combination ensures the continuity and dynamism of the action-state.

The article also separately analyzes the use of the verb "uzanmoq - to lie down" in various contexts in the novel. Although its main denotative meaning is "to stretch out the body," it is found that, depending on the context, it can express semantic subtleties such as involuntary lying down due to fatigue, intentional transition to a lying position, speed of movement, and direct transition to a position after movement. It is also shown that the textual meaning of the forms "javdiydi" and "javdishgan" should be interpreted not on the basis of ready-made explanations in the dictionary, but on the basis of their contextual use and relationship to the character's character.

The analysis shows that Chulpan used lexical units not recorded in dialects and dictionaries not by chance, but for a specific artistic purpose. Such units serve as an important linguopoetic tool in ensuring the vernacular and naturalness of the language of the work, individualizing the character's speech, effectively describing external and internal situations, concretizing the historical-ethnographic environment, and forming a national-regional flavor. Thus, dialectisms and non-standard lexemes in the novel "Night and Day" can be evaluated not only as units that deviate from the norms of the literary language, but also as important language tools that enrich the semantic, aesthetic, and national-cultural content of the literary text.

## References:

1. Quronov, D. (2018) *Adabiyot nazariyasi asoslari* [Fundamentals of Literary Theory]. Tashkent: Akademnashr.

2. Chulpan. (2016). *Asarlar* [Works]. In 4 volumes. Vol. 2. Tashkent: Akademnashr.

3. Chulpan. (2000). *Kecha va kunduz* [Night and Day]. Tashkent: Sharq.

4. Madvaliyev, A., Xudayberganova, D. (ed.) (2023). *O'zbek tilining izohli lug'ati* [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. In 6 volumes. Vol. 3. L-P. Tashkent: G'.G'ulom Publishing and Printing Creative House.

5. Pardayev, M.H., Tuychiboyev B.B. (2017). *Ustrushona qadimda va ilk o‘rta asrlarda (yozma va arxeologik manbalar asosida)* [Ustrushona in antiquity and the early Middle Ages (based on written and archaeological sources)]. Tashkent: Science and technology.

6. Wikipedia. [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Abrawan (Date of Access: 18.05.2026).

7. Giddens, E. (2002). *Sotsiologiya* [Sociology]. Tashkent: Sharq.

8. Marufov, Z.M. (ed.) (1981). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. In 2 volumes. Vol. 2. S-H. Moscow: Russkij yazyk.

9. Imlo.uz [Online]. URL: https://imlo.uz/uz/word/javramoq (Date of Access: 16. 02. 26).

10. Doniyorov, X., Mirzayev, S. (1962). *So‘z san’ati* (Mahorat va til haqida mulohazalar) [The Art of Words (Reflections on Craft and Language)]. Tashkent: O‘zdavnashr.

11 Doniyorov, A. (1990). Sheva unsurlarining badiiy asarlarda qo‘llanishi [The Use of Dialectal Elements in Literary Works Literature]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. No 6. Pp. 34-38.

12. Vinogradov, V.V. (1959). *O yazyke hudozhestvennoj literatury* [O language of godly literature]. Moscow: Goslitizdat.

13. Khojiev, A. (2002). *Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of linguistic terms]. Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan”.

14. Doniyorov, Kh. (1979) *Qipchoq dialektlarining leksikasi* [Vocabulary of the Kipchak Dialects]. Tashkent: Fan.

15. *Dhaka muslin* [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/ Dhaka_muslin (Date of Access: 08.04.2026).

16. *Unikalnyj material: recept etoj drevnej tkani davno utrachen. Dazhe uchenye ne znayut, kak yeyo izgotovit*! [Unique material: recipe etoy drevney tkani davno utrachen. Daje uchenye ne znayut, kak ee izgotovit]. [Online]. URL: https://www.techinsider.ru/science/1549863-recept-etoy-drevney-tkani-davno-utrachen-dazhe-uchenye-ne-znayut-kak-ee-izgotovit/ (Date of Access: 16.04.2026).

17. Ne’matova, D.S. (2016) *Cho‘lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili* [Linguistic Analysis of Cho‘lpon’s publicistic works]. Tashkent: “Turon Zamin Ziyo” Publishing House.

18. Ne’matova, D.S. (2020). *O‘zbek ilmiy tilshunosligi* (O‘zbek tilshunosligi tarixi) [Uzbek Scientific Linguistics (History of Uzbek Linguistics)]. Tashkent: Muharrir.

*Muallif haqida ma’lumot:*

**NE’MATOVA Donoxon Saidjalolovna** – filologiya fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: d.ne’matova1972@gmail.com